



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2022- yil yanvar-sentabr

2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentabr oylariga, Farg'ona viloyatida jami 6 204,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,8 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


14,2 Yirik qurilish tashkilotlari

62,9 Kichik korxona
va mikrofirmalar

22,9 Norasmiy
sektor

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 106,2 % oshgan (226 birlik).



Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,2 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizga oshgan (117 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,5 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 123,7 foizga oshgan (92 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,3 foiz ulushni va 101,4 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (17 birlik).



**Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan
shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumotlar, birlik**


	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.10.2021- y.	01.10.2022- y.	
Farg'ona viloyati	3633	3859	106,2
Farg'ona sh.	973	1054	108,3
Qo'qon sh.	358	364	101,7
Quvasoy sh.	130	132	101,5
Marg'ilon sh.	352	330	93,8
Oltiariq	116	142	122,4
Qo'shtepa	110	115	104,5
Bag'dod	168	177	105,4
Buvayda	138	144	104,3
Beshariq	96	98	102,1
Quva	154	159	103,2
Uchko'prik	203	211	103,9
Rishton	86	109	126,7
So'x	71	89	125,4
Toshloq	148	147	99,3
O'zbekiston	94	105	111,7
Farg'ona	118	144	122,0
Dang'ara	142	143	100,7
Furqat	81	89	109,9
Yozyovon	95	107	112,6

**2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar-sentabr oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 880,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 134,0 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 2,6 % punktga ko'payib, 14,2 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-sentabr
oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari**



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 31,5 %i yoki 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 79,2 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 27,5 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 228,9 % oʼsish surʼati) va Dangʼara tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 15,3 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 13,9 m. oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-sentabr oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,9 %i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga ko‘rsatkichiga nisbatan 3,1 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,2 %ni tashkil etgan holda 3 904,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

66,0
2021- yil
yanvar-sentabr

62,9
2022- yil
yanvar-sentabr



Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona shahri (1 176,7 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 104,0 %), Marg‘ilon shahri (510,3 mlrd. so‘m yoki 136,1 %), Qo‘qon shahri (267,2 mlrd. so‘m yoki 97,2 %) va Qo‘shtepa tumani (207,5 mlrd. so‘m yoki 144,4 %) to‘g‘ri keldi.


Qurilish ishlaringning umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 22,9 %ni tashkil etdi yoki 1 419,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 118,2 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 305,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 899,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,9 % va 95,1 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-sentabr oylaridagi
Farg'onaga viloyatida qurilish ishlari

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta
qurollantirish ishlari ulushi**

2022- yil yanvar-sentabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 73,2 %i yoki 4 544,7 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 726,3 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 16,0 %ni tashkil etdi.




Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 306,7 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 28,7 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta quollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	6 204,5	110,8	4 544,7
Farg'ona sh.	1 670,6	111,8	1 296,6
Qo'qon sh.	465,8	111,1	376,5
Quvasoy sh.	173,3	104,8	134,8
Marg'ilon sh.	834,9	101,7	690,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	233,2	119,7	145,9
Qo'shtepa	304,7	141,0	191,4
Bag'dod	260,6	87,9	166,9
Buvayda	214,7	145,0	137,3
Beshariq	151,3	130,6	95,4
Quva	147,1	85,1	129,1
Uchko'prik	213,2	112,1	129,5
Rishton	97,2	100,1	65,7
So'x	176,1	144,1	99,0
Toshloq	278,6	123,6	174,5
O'zbekiston	156,7	100,5	128,8
Farg'ona	206,4	100,1	97,2
Dang'ara	297,0	139,4	252,3
Furqat	124,2	72,8	93,5
Yozyovon	198,9	114,0	139,4

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 13,0 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,7 % punktga kamayib, 57,3 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 % punktga ko'payib, 29,7 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da



2021- yil
yanvar-sentabr

2022- yil
yanvar-sentabr


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 19,3 %ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,6 % (2,0 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektoring ulushi 2,1 %ni tashkil etdi (1,5 % punktga ko'paydi).




Ulushi, %da




Yirik qurilish tashkilotlari



2021- yil yanvar-sentabr



Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor



2022- yil yanvar-sentabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi va 13,4 %ni tashkil etdi. Qolgan 86,6 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.



2022- yil yanvar-sentabr oylaridagi
Farg'onada viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi boʼlimi
Tel.: 73 241-98-42